

**O'ZBEKISTOH RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi:

№ 707

«29» 08 2022-yil



**“TRANSPORT LOGISTIKASI”
FANI SILLABUSI**

Bilim sohasi:	300000	– Ishlab chiqarish texnik soha
Ta'lim sohasi:	310000	– Muhandislik ishi
Ta'lim yo'nalishi:	5310600	– Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti)

Qarshi - 2022

Fan sillabusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta ta’lim vazirligining 2020-yil 14-avgustdagi 3-sonli buyrig‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va Qarshi muhandislik- iqtisodiyot instituti Kengashi tomonidan 2022-yil 28 iyundagi 11-sonli yig‘ilishida tasdiqlangan o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:



O.T.Mamadiyev - QarMII “Transport vositalari muhandisligi” kafedra katta o‘qituvchisi

Fan sillabusi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining «Transport vositalari muhandisligi» kafedrasining 2022-yil «26» 08 № 1, Muhandislik texnikasi fakulteti Uslubiy Komissiyasida 2022-yil «27» 08 № 1 va institut Uslubiy Kengashida 2022-yil «28» 08 № 1 yig‘ilishi qarori bilan o‘quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan..

O‘quv- uslubiy boshqarma boshlig‘i



Sh.R.Turdiyev

Fakultet Uslubiy Komissiyasi raisi



E.U.Eshdavatov

Kafedra mudiri



O'.N.Abduraxmonov

Fan/modul kodi TL4102		O'quv yili 2022-2023	Semestr 5	ECTS-Kreditlar 2
Fan/modul turi Tanlov		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soati 2
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Transport logistikasi	30	30	60

O'qituvchilar haqida ma'lumot

Kafedra nomi	Transport vositalari muhandisligi		
O'qituvchilar	F.I.Sh.	Telefon nomeri	e-mail
Ma'ruzachi	Mamadiyrov Obid Tursunovich	+998997458584	mamadiyrovobid@gmail.com
Amaliy mashg'ulot	Mamadiyrov Obid Tursunovich	+998997458584	mamadiyrovobid@gmail.com

I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maksad - iqtisodiyotni yangilash va modernizatsiya qilish sharoitida mahsulot va zahiralarni saqlash, ularni istyemolchilarga o'z vaqtida, kerakli miqdorda yetkazishning mohiyati va zarurligini ko'rib chiqqan holda, talabalarda shu sohada nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdir.

Fanning vazifasi - logistika obyekti va subyekti, mikro va makrologistik tizimlar, logistikada oqimlar va ularning turlari, logistik tizimda transport turini tanlash masalalari, logistik tizimda zahiralarni boshqarish, yuk tashishda axborot oqimlarini loyihalash, logistik xarajatlar, turli transport turlarida yuk tashish tariflari va ularni hisoblash tartibi, omborlar, logistik markazlar va unda amalga oshiriladigan transport xizmatlari haqida tushunchalar berishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi

№	Mavzular	Fanning bo'limi va mavzusi, ma'ruza mazmuni	soat
1.	1. Mavzu. Kirish. Transport logistikaning asosiy yo'nalishlari va tushunchalari.	1.Transport logistikasi fanining vujudga kelish tarixi. 2.Transport logistikasi fanining rivojlanish bosqichlari. 3.Logistikaning asosiy maqsadi, masalalari va tushunchalari. 4.Moddiy oqimlarni boshqarishda logistik yondoshuvning o'ziga xos xususiyatlari. 5.Transport logistikasining funksiyalari.	2
2.	2. Mavzu. Logistikada transportning ahamiyati.	1. Transport vositalarining turlari va ularning moddiy texnika bazasi. 2. Transport turlarining moddiy - texnika bazasi. 3. Mahsulotlarni yetkazib berish tizimini boshqarish. 4. Avtotransport harakatlanuvchi tarkibining xizmatlari.	2
3.	3. Mavzu. Transport logistikasining axborat ta'minoti.	1.Logistik axborot oqimlari. 2.Teskari aloqaga ega axborot tizimini boshqarish. 3.Logistik axborot tizimi infrastrukturasi va axborot texnologiyalari. 4.Yo'lovchilarni tashishda logistik axborot texnologiyalari. 5.Logistik axborot tizimlarida shtrix kodlardan foydalanish	2
4.	4. Mavzu. Taqsimot logistikasi va uning asosiy elementlari.	1. Taqsimot logistikasi tushunchasi va qo'llanilish sohasi. 2. Tovarlarni taqsimlash kanallari, ularning vazifalari va tuzilishi. 3. Tovarlarni yetkazib berish kanallarini tanlash. Taqsimot markazlarini joylashtirish. 4. Taqsimlash tizimida omborlarning optimal miqdorini aniqlash.	2

5.	5. Mavzu. Omborlar logistikasi va uning asosiy elementlari.	1. Omborlarning turlari. 2. Omborlarda amalga oshiriladigan operatsiyalar. 3. Transport va ortish-tushirish mashinalari ishini birgalikda tashkil etish.	2
6.	6. Mavzu. Logistik yetkazib berishda taralash va himoyaviy o'rab-chirmash.	1. Logistik yetkazib berish zanjirida taralash va himoyaviy o'rab-chirmash zaruriyati. 2. Mahsulotlarni shikastlanishdan saqlash. 3. Konteynerlashtirish.	2
7.	7. Mavzu. Logistikaning transport ekspeditsiya ta'minoti.	1. Tovarlar taqsimotida transport ekspeditsiya ta'minotining hozirgi davr muammolari. 2. Tovarlar yetkazib berish tizimlari (yunimodal, intermodal, multimodal tizimlar). 3. Terminallarning vazifasi. 4. Logistik markazlar va ularni boshqarish.	2
Jami:			14

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan ko'nikmalarini amaliy masalalar echish orqali yanada boyitadilar. Shuningdik, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishadilar, tarqatma materiallardan foydalanish, masalalar echish, mavzular bo'yicha kurgazmali qo'rollar tayorlash va boshqalar tavsiya etiladi. Amaliy mashg'ulotlarini o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi.

-o'qituvchining innovasion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;

-amaliy mashg'ulotlar nafaqat aniq mavzu bo'yicha bilimlarni yakunlash, balki talabalarni tarbiyalash manbai hamdir.

Quyidagi o'quv-tashkiliy ishlar asosiy o'quv vaqtidan tashqari o'tkaziladi:

- Mustaqil ishlar bo'yicha maslahatlar berish va ularni qabul qilish;
- Darslarni mustaqil o'zlashtirishlari uchun mavzularni belgilash, berish va hisobot qabul qilish (shu jumladan, talabalar tomonidan qoldirilgan darslar uchun ham);
- Mustaqil yechish uchun berilgan masalalar bo'yicha uslubiy maslahatlar berish;

➤ Darsxonada va mustaqil masalalar yechilgan daftarini talaba kurs bo'yicha yakuniy nazoratga taqdim etadi.

Amaliy mashg'ulotlari rejalashtirilgan.

№	Amaliy mashg'ulotlar mavzulari	soat
1.	Optimal taqsimot tizimlarini tanlash.	2
2.	Harakatlanish vaqtiga ko'ra tashuvchini tanlash.	2
3.	Transport logistikasida har hil transport turlarida yuk aylanmasini aniqlash.	2
4.	Transport logistikasida yuk tashish marshrutlarini tuzishni o'rganish.	2
5.	Moddiy oqimlarning tavsifi va ularni hisoblash.	2
6.	Moddiy oqimlarni tashishda tara va upakovkani tanlash.	2
7.	To'plangan tovarlarni saqlash uchun kerakli ombor maydonini hisoblash.	2
8.	Omborning umumiy maydonini hisoblash.	2
Jami:		16

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'limda talabalar Transport logistikasi majmuasi. Logistik tizimlarda tashishni tashkil etish bo'yicha bilimlarini mustaqil oshirishlarini nazarda tutadi.

1. Logistikaning rivojlanish tarixi va uslubi
2. Logistikaning tushunchalari va predmeti
3. Logistikaning funksional majmuasi. Ta'minot logistikasi
4. Taqsimot logistikasi
5. Omborlar logistikasi
6. Yuklarni tashish jarayonlari va texnologiyalarini optimallashtirish masalalari va ularning yechimlari
7. Yuk oqimlarini jo'natish, qabul qilish jarayonlari va ko'rsatkichlarini modellashtirish
8. Tashish xizmati ko'rsatish jarayonlarini boshqarish modellari
9. Yuk oqimlarini marshrutlashtirish modellari va uslublari
10. Yo'lovchilarga transport xizmati ko'rsatishning logistik tizimini boshqarish
11. Transport logistikasi majmuasi. Logistik tizimlarda tashishni tashkil etish
12. Yuk oqimlarini aniq muddatda yetkazib berishni ishonchli rejalashtirish
13. Iste'molchilarga avtomobil transporti xizmati ko'rsatish tizimi va jarayonlari

- 14.Yuk va yo'lovchilar tashish xizmati logistik operatsiyalari va zvenolarining texnologik jarayonlari hamda ko'rsatkichlari
- 15.Logistikada axborot-kommunikasiya tizimlari va texnologiyalari
- 16.Logistikaning zamonaviy masalalari va O'zbekistonda ularni joriy etish imkoniyatining istiqbollari
- 17.Logistik faoliyatni ma'muriy boshqaruv masalalari
- 18.Ta'minot zanjirida zahiralarini boshqarish
- 19.Respublikamizda logistik markazlarning shakllanishi.
- 20.Transport va ombor jarayonlarining o'zaro bog'liqligi.
- 21.Transport xizmatlari va yuklarni ekspeditsiyalash.
- 22.Yuklarni konteynerlarda tashish ahamiyati. Multimodal tashishlar va yuk birliklari.
- 23.Xalqaro transport yo'laklari va ularni rivojlantirish. Logistika va marketingni o'zaro bog'liqligi.
- 24.Yevropada operator kompaniyalari transport xizmatlari bozorining rivojlanishi.
- 25.Logistik markazlarni tashkil qilish konsepsiyasi. Halqaro tashuvlarni huquqiy tartibga solish asoslari.
- 26.Transport-ekspeditsion xizmatlar faoliyati va logistikaning rivojlanishi, turli transport turlarining o'zaro bog'liqligi.
- 27.Transport servisi sifatini yaxshilash raqobatbardoshlikni oshirish omili.
- 28.Korxonada material oqimlarni boshqarishda logistik yondoshuv samarasi.
29. Transport logistikasida korxonaning raqobatbardoshligini oshirish.
30. Transport logistikasida xizmat ko'rsatish sohalari.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar).

Talaba "Transport logistikasi" fanida transport vositalari muhandisligi fanlarining qonun va qoidalarini, injenerlik amaliyotida juda ko'p qo'llanishi mumkin bo'lgan masalalari qoidalar haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi;

Talaba amaliy mashg'ulotlari bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilish va o'zlashtirish mashg'ulotlarga to'liq ishtirok etish va modul platformasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazoratini biladi;

Talaba mustaqil ta'lim mavzulari modul platformasi orqali berilgan mavzular bo'yicha topshiriqlarni bajaradi. (test, referat va boshqa usullarda).

Fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. **Talaba:**

- logistikaning rivojlanish tarixi, tushunchalari va predmeti;
- funksional majmuasi;
- logistikada axborot-kommunikatsiya tizimlari va texnologiyalari;
- har xil transport turlarining logistik tavsiflari va infratuzilmalari haqida

tasavvurga ega bo'lishi;

- logistikada moliyaviy va axborot oqimlarini;
- yuk va yo'lovchilarni tashish jarayonlarini;
- yuk va yo'lovchilar tashishning zamonaviy texnologiyalarini;
- logistik faoliyatni ma'muriy boshqaruv masalalarini;
- avtotransport vositalari ish unumdorligining shakllanishi va

bog'lanishlarini bilishi va ulardan foydalana olishi;

- logistikada axborot texnologiyalarini qo'llash;
- mijozlarga xizmat ko'rsatishni boshqarish;
- omborxona hududlarini loyihalash;
- zahiralarini boshqarish modellarini loyihalash;
- tashish hajmini iste'molchilar ehtiyojlariga muvofiq optimal boshqarish bo'yicha ***ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.***

VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, amaliyot darslarida berilgan vazifalarni bajarish va mashg'ulotlardagi faollik va mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish hamda joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, shuningdek, ushbu fan bo'yicha yakuniy nazorat ishini topshirish.

Fan bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775 -son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq oliy ta'lim

muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va boholash tizimi to'g'risidagi Nizom (*Nizom O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018 yil 9 avgustdagi 19-2018-son buyrug'iga binoan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018 yil 26 sentabrda 3069-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan*) asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Ushbu Nizomga muvofiq fan bo'yicha o'quv semestri davomida Talabalarning fan bo'yicha o'zlashtirishi "Joriy baholash" hamda "Oraliq baholash" va "Yakuniy baholash" turlari orqali aniqlanadi.

Joriy baholash (JB) - semestr davomida ishchi fan dasturining tegishli (fanning amaliy va laboratoriya mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugagandan keyin talabaning bilim va ko'nikma darajasini aniqlash turi hisoblanadi.

JB talaba tomonidan ishchi fan dasturining tegishli bo'limlari mazmunini o'zlashtirish darajasi, talabaning adabiyotlar bilan ishlash amaliy va laboratoriya ko'nikmalari, muammoli vaziyatlarni hal etish (keys-stadi), (bilaman, bildim, bilishni hohlayman), tahlil, mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini izchil va aniq bayon qilish qobiliyatini aniqlashga qaratiladi.

Amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarining natijalari JBda inobatga olinadi.

Oraliq baholash (OB) – semestr davomida ishchi fan dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugagandan keyin talabaning bilim va ko'nikma darajasini aniqlash turi hisoblanadi.

OB talaba tomonidan ishchi fan dasturining tegishli bo'limlari mazmunini o'zlashtirish darajasi, talabaning adabiyotlar bilan ishlash amaliy ko'nikmalari, muammoli vaziyatlarni hal etish (keys-stadi), tahlil, mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini izchil va aniq bayon qilish qobiliyatini aniqlashga qaratiladi.

Fanning xususiyati va unga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda OB soni bir semestrda 1 tani tashkil etadi va u test shaklida o'tkaziladi.

OB ishchi fan dasturiga asosan dekanat tomonidan belgilangan jadval asosida o'kaziladi. Talaba OBni belgilangan muddatlarda topshirishi shart.

OB asosan o'quv mashg'ulotlari davomida amalga oshiriladi. Talabaning JB va OBDan olgan ijobiy baholari asosida unga yakuniy baholashni topshirishga ruxsat beriladi.

JB va OB ni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, fakultet dekani va kafedra mudiri hamda ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi tomonidan tuzilgan komissiya xulosasi asosida OB natijalari bekor qilinadi hamda OB qayta o'tkaziladi.

Yakuniy baholash (Yab) – semestr yakunida fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarning talaba tomonidan o'zlashtirish darajasini aniqlash turi

hisoblanadi.

Yab talaba tomonidan ishchi fan dasturining semestrga mo'ljallangan bo'limlari mazmunini o'zlashtirish darajasi, uning mantiqiy fikrlashi, amaliy ko'nikmalari, muammoli vaziyatlarni hal etish (keys-stadi), tizimli va tanqidiy tahlil qila olishi, o'z fikrlarini izchil va aniq bayon qilish qobiliyatini aniqlashga qaratiladi.

Fanning xususiyati va unga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda Yab yozma yoki test shaklida o'tkaziladi.

Yabni o'tkazish jadvali o'quv jarayoni grafigiga muvofiq fakultet dekani yoki o'quv-uslubiy bo'lim tomonidan tayyorlangan oliy ta'lim muassasasi o'quv ishlari bo'yicha prorektori tomonidan tasdiqlanagan Yab jadvali asosida o'tkaziladi. Talaba Yabni belgilangan muddatlarda topshirishi shart.

Yab ni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi yoki o'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i rahbarligida tuzilgan komissiya xulosasi asosida Yab natijalar bekor qilinadi hamda Yab qayta o'tkaziladi.

VIII. Fan bo'yicha talabalar o'zlashtirishini baholash tizimi

Baholash tartibi va mezonlari

Talabalarning har bir semestrda fanlarni o'zlashtirishi har bir baholash turlari bo'yicha: 5 (a'lo), 4 (yaxshi), 3 (qoniqarli) va 2 (qoniqarsiz) ko'rinishida baholanadi. 5, 4 va 3 baholar ijobiy hisoblanadi. Baholashda raqam va matn bir xil talqin etiladi.

Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirishini baholashda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:

5 (a'lo) baho:

- xulosa va qaror qabul qilish;
- ijodiy fikrlay olish;
- mustaqil mushohada yurita olish;
- olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
- mohiyatini tushunish;
- bilish, ifodalash, aytib berish;
- fan bo'yicha tasavvurga ega bo'lish.

4 (yaxshi) baho:

- mustaqil mushohada yurita olish;
- olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
- mohiyatini tushunish;
- bilish, ifodalash, aytib berish;
- fan bo'yicha tasavvurga ega bo'lish.

3 (qoniqarli) baho:

- mohiyatini tushunish;
- bilish, ifodalash, aytib berish;
- tasavvurga ega bo'lish.

2 (qoniqarsiz) baho:

- fan dasturni o'zlashtirmaganlik;
- fanning mohiyatini bilmaslik;
- aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;
- mustaqil fikrlay olmaslik.

Amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim topshiriqlari va OB 5 baho (bal)lik tizimda ushbu fandan o'tkaziladigan Yabga qadar bo'lgan muddatda topshirilishi shart. Ushbu muddatda ularni ijobiy bahoga topshirmagan talaba bu fandan o'tkaziladigan Yabga kiritilmaydi va akademik qarzdor hisoblanadi.

Uzrli sabablarga (talabani kasal bo'lishi, yaqin qarindoshlari oilasida favqulodda holatlar, yashash joyi bilan bog'liq muammoli vaziyatlar, respublika va xalqaro miqyosdagi tadbirlarda ishtirok etish) ko'ra baholashlarda ishtirok etmagan talabaga, o'qishini boshlab asoslovchi hujjatlarni taqdim etgan taqdirda, fakultet dekani farmoyishi bilan baholashlarni muddatlari ko'rsatilgan (o'quv yili semestri davomida) shaxsiy grafik asosida topshirishga ruxsat beriladi.

Kuzgi semestr natijalari bo'yicha akademik qarzdorligi 3 tagacha bo'lgan talabalarga bir oy gacha, bahorgi semestr natijalari bo'yicha akademik qarzdorligi 3 tagacha bo'lgan talabalarga, bitiruvchi kursdan boshqa kurs talabalariga yangi o'quv yili boshidan qayta topshirishga qo'shimcha bir oy muddat beriladi. Akademik qarzdorligi 4 ta va undan yuqori bo'lgan talabalarga qayta topshirishga ro'xsat berilmaydi va rektorning buyrug'i bilan kursdan qoldiriladi.

Berilgan muddatda akademik qarzdorlikni qayta topshirishlar soni 2 martadan oshmasligi kerak. Ikkinchi qayta topshirish fakultet dekani tasdiqlagan komissiya tomonidan qabul qilinadi.

Qo'shimcha muddatlarda ham akademik qarzdorlikni bartaraf etmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan kursdan qoldiriladi.

Talaba baholash natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha baholash turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekani taqdimnomasiga muvofiq rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarining arizalarini ko'rib chiqib, 2 kungacha bo'lgan muddatda o'z xulosasini bildiradi. Fan o'qituvchisining qo'ygan bahoni asoslovchi qisqa ma'lumotini oladi.

Apellyatsiya komissiyasi o'z xulosasida baholash jarayoni mazkur Nizom asosida o'tkazilganligi yoki Nizom talablari buzilganligi yoxud baholash to'g'riligi (noto'g'riligi) to'g'risida xulosa beradi.

Apellyatsiya komissiyasi xulosasiga ko'ra Nizom talablari buzilgan yoki baholash noto'g'ri bo'lgan deb topilgan taqdirda, mazkur komissiya qarori bilan baholash qayta o'tkaziladi.

Kursda qoldirilgan talaba fan(lar)ni o'zlashtirmagan semestr boshidan to'lov-kontrakt asosida o'qishini davom ettiradi va mazkur semestr bo'yicha o'quv rejada belgilangan ammo o'zlashtirilmagan barcha fanlarni qayta o'zlashtirishi hamda baholanishi talab etiladi.

Talaba OB dan 3, 4 yoki 5 baho olgan taqdirda, ya'ni ijobiy baholanganda uni qayta topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Agar talaba yozma nazorat ishlarini OB yoki YAB topshirmagan bo'lsa, u holda qaydnoma (Elektron tizim)ning ushbu talabaga mos keluvchi qatordagi tegishli katakda "0"(nol) deb yoziladi.

IX. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

Asosiy adabiyotlar

1. E.A.Soliyev, J.R.Qulmuxamedov, F.R.Mirzayev, O.K.Adilov, X.A.Mirgiyazov, K.M.Nazarov "Transport logistikasi asoslari" o'quv qo'llanma prof. O.U.Salimov tahriri ostida Jizzax-2014y.
2. Л.Б.Миротин М. Транспортная логистика. М.: " Экзамен", 2002, 512 с.
3. D.M.Umarova, M.A.Bo'ronovalar "Logistika" o'quv qo'llanma TAYI: Cho'lpon-2016 yil.
4. J.R.Qulmuhamedov, M.M.Aripjonovlar "Logistika asoslari" o'quv qo'llanma TAYI: Fan va Taraqqiyot - 2015 yil.
5. Q.A.Dadaboyev "Logistika" o'quv qo'llanma TDII: Iqtisod-moliya - 2007 yil.
6. S.S.G'ulomov, Y.T.Dodoboyev, M.O.Osmonovlar "Logistika" o'quv qo'llanma TAYI: Yangi asr avlodi -2001 yil

Qo'shimcha adabiyotlar

1. SH. Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016.
2. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.
3. A.A. Karimov va O.T.Mamadiyurov "Transport logistikasi" fanidan ma'ruzalar matni. 2022 yil.
4. A.A. Karimov va O.T.Mamadiyurov "Transport logistikasi" fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma. 2022 yil.
5. С.Е.Гавришев, Е.П.Дудкин, С.Н.Корнилов, А.Н.Рахмонгулов, С.В.Трофимов Транспортная логистика: учебное пособие –С-Пб.: ПГУПС, Табл. 10, Ил 28, 2003 — 279 с.
6. Транспортная логистика : учебное пособие / И. Н. Лавриков, Н. В. Пеньшин. – Тамбов : Изд-во ФГБОУ ВО «ТГТУ», 2016. – 92 с. – 100 экз. – ISBN 978-5-8265-1568-6.
7. Транспортная логистика : учебное пособие / Л. Э. Еремеева ; Сыкт. лесн. ин-т. — Сыктывкар : СЛИ, 2013. — 260 с.
8. Igor. Y. Davydenko. Logistics Chains in Freight Transport Modelling / Delft University of Technology, 2015. - pp. 188.
9. SH.A.Butayev, Q.M.Sidiqnazarov, A.S.Murodov, A.O'.Qo'ziyev. Logistika (yetkazib berish zanjirida oqimlarni boshqarish). «Extrtmum – PRESS». T.: 2012, 577 b.

Qo'shimcha axborot manbalari
(internet saytlar, davriy nashrlar):

1. www.ziyonet.uz – ta'lim portali.
2. www.natlib.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi.
3. www.hardline.ru – kompyuter hujatlari.
4. www.ziyouz.com – elektron kutubxona.

